



BOLALIKNI IJTMOIY HIMoya QILISHNING ZAMONAVIY TIZIMI

Ravshanoy Toshmatova

FarDU talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada, bolalarning ijtmoyi hayotdagi o‘rni va ularni ijtmoyi himoya qilishning zamonaviy usullari va tizimi haqida hamda shuningdek, ijtmoyi himoyaga muhtoj bolalarning mehnat darajasi va huquqlari haqida keng asosda ma’lumotlar yoritib berilib o‘tilgan. Bolalarning himoya qilishning zamonaviy shakli haqida maa’lumotlar berilib o‘tilgan.

Abstract: In this article, the place of children in social life and the modern methods and system of their social protection, as well as the level of work and rights of children in need of social protection, are covered on a broad basis. Information about the modern form of protection of children is provided.

Аннотация: В данной статье на широкой основе освещены место детей в общественной жизни и современные методы и система их социальной защиты, а также уровень трудовой деятельности и права детей, нуждающихся в социальной защите. Приведена информация о современной форме защиты детей.

Kalit so‘zlar: ijtmoyi, davlat, migratsiya, jinoyat, zo‘ravonlik, huquq, normativlik

Key words: social, state, migration, crime, violence, law, regulation

Ключевые слова: общество, государство, миграция, преступность, насилие, закон, регулирование.

Bugungi kunda yurtimizda bolalarni ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy jihatdan himoya qilish bo‘yicha juda ko‘plab amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada tegishli huquqiy baza shakllangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksi, Jinoyat kodeksi va boshqa bir qator qonun hujjalarda bolalar huquqlarini himoya qilishga oid normalarda o‘z ifodasini topgan. Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya inson huquqlari sohasidagi eng muhim hujjalardan biridir. Hozirgi kunda bolalarni himoya qilish va ularning huquqlari to‘liq amalga oshirilishini ta’minalash butun dunyoda davlatlarning majburiyatlariga aylandi.

Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya esa bunga to‘liq asos bo‘la oladi. Ma’lumki, Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyani yaratish ehtiyoji 1959-yil bola



huquqlari haqidagi Deklaratsiya qabul qilingandan so‘ng paydo bo‘lgan. Biroq uni tayyorlash jarayoni ko‘p vaqt ni talab qildi. 1979-yil Xalqaro bolalar yilida jahonning turli mamlakatlari hukumatlari tomonidan tavsiya qilingan fikrlar bo‘yicha faoliyat olib boruvchi muvofiqlashtiruvchi ishchi guruh tuzilib, ushbu ishchi guruh 10 yil davomida muzokaralar olib bordi. Nihoyat 1989-yil 20 -noyabrda BMTning Bosh Assambleyasiga Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyani qabul qildi. Konvensiyada ilk bor bola tushunchasi ochib berildi, bolaning huquq va erkinlik doirasi kengaytirildi, hujjatda shafqatsiz qiynoq va qurolli to‘qnashuvlar qurbanini bo‘lgan, shuningdek, qonunni buzgan va muomalaga layoqatsiz bolalarning yuridik himoyasi nazarda tutilgan.

Koventsiyada shuningdek, bola yoki o‘smir huquqlarini himoya qilishda kamsitmaslik tamoyili e’tirof etilgan. Mazkur xalqaro hujjat bola hayoti bilan bog‘liq 54-moddani o‘z ichiga olgan. Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki unga qo‘shilgan har bir mamlakat o‘z milliy qonunchiligini uning qoidalariga muvofiq qayta ko‘rib chiqishlari lozim. Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki-yillaridanoq bola huquqlarini himoya qilish tizimini bosqichma bosqich isloh etish, bu sohadagi xalqaro me’yorlarni milliy qonunchillikka implementatsiya qilish va qonunchilikni takomillashtirishga jiddiy e’tibor qaratib kelinmoqda.

1992-yil 8-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, O‘zbekiston tomonidan “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyani ratifikatsiya qilinishi va ushbu xalqaro hujjatni milliy qonunchiligidan moslashtirish yuzasidan 2008-yil 7-yanvarda “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida” Qonunning qabul qilinishi yuqoridaq ezgu ishlarga qonuniy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur Konvensiya respublikamizda bolalar huquqlariga oid milliy qonunchilikning mustahkam bazasini yaratishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bugungi kunga kelib mamlakatimizda bolalar manfaatlari va huquqlarini himoya qilishga doir barcha asosiy xalqaro hujjatlarga qo‘sildi. BMTning Balog‘atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari (Pekin qoidalari, 1985-yil) hamda BMTning Voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatlarning oldini olish uchun bosh tamoyillari (ArRiyod bosh tamoyillari, 1990-yil) shular jumlasidandir. "Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni bola huquqlarini himoya qilish bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Ushbu qonun mamlakatimizda yashayotgan har bir bolaning huquq va erkinliklarini ta’minlash, uning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish, kamsitilishiga



yo‘l qo‘ymaslik, sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, huquqlari va imkoniyatlari tengligini ta’minalashga xizmat qiladi. Mazkur qonunda bolaning yashash, shaxsiy daxlsizlik, oila muhiti, mulkka egalik qilish, mehnat qilish, ta’lim olish va bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, ijtimoiy himoyalanish kabi huquqlari kafolatlari aniq belgilab qo‘-yilgan.

Zero, fuqarolik jamiyat bolalarning ulg‘ayishi, himoyalanishi va jamiyat hayotida ishtirok etishi, ijtimoiy ta’minot xizmatlari sifatli bo‘lishini ta’minalashda qudratli kuch bo‘la oladi. “Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya”ning asosiy tamoyillari. Bola huquqlari to‘g‘risida konvensiya rivojlanishning turli bosqichlarida bolalar farovonligi mezonlarini aniqlab beruvchi yagona xalqaro hujjat, shuningdek, unda ishtirok etuvchi mamlakatlar uning qoidalarini bajarishlari qat’iy belgilangan rasmiy huquqiy dasturdir. Konvensiya umumiy me’yorlarni joriy qilishiga qarmasdan, unda alohida davlatlarning madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy qirralari aks etgan.

Har bir davlat bu me’yorlarning bajarilishiga o‘ziga xos milliy xususiyatlarini nazarga olish huquq va imkoniyatiga ega.

• **Birinchidan**, Konvensiyada ilk bor bola tushunchasi huquq subyekti sifatida tan olingan. Bu huquq sub’ektiga bolalardan tashqari, voyaga yetmaganlar ham kiradi.

• **Ikkinchidan**, Konvensiya voyaga yetmaganlarning xalqaro huquqiy maqomini shakllantirdi. Shunga ko‘ra, bolaning huquq va erkinlik doirasi kengaytirildi.

• **Uchinchidan**, ushbu hujjatda shafqatsiz qynoq va qurolli to‘qnashuvlar qurboni bo‘lgan, shuningdek, qonunni buzgan va muomalaga layoqatsiz bolalarning yuridik himoyasi nazarda tutilgan

. • **To‘rtinchidan**, unda bolalarni ba’zi bir salbiy hodisalar (giyohvandlik va ruhiy ta’sir etuvchi moddalarni noqonuniy iste’mol qilish, bolalarni sotish va g‘ayriqonuniy maqsadlarga jalb etib, ulardan foydalanish) kabi ta’sirlardan himoya qilish masalalari ham alohida qayd etilgan.

• **Beshinchidan**, bola yoki o‘smir huquqlarini himoya qilishda kamsitmaslik tamoyili e’tirof etilgan. Ilgari bola haqida g‘amxo‘rlik u himoyaga muhtoj bo‘lgan taqdirdagina amalga oshirilar edi. Konvensiya qabul qilinishi munosabati bilan mutlaqo yangi konsepsiya belgilandi. Unda ta’kidlanishicha, g‘amxo‘rlik va himoya bu — muruvvat masalasi emas, balki huquqdir. Konvensiya kuchga kirishi bilan, u bolalar uchun asosiy ijtimoiy va huquqiy mezonlar, tartib va qoidalar qat’iy belgilangan majmuuga aylandi. Bola huquqlarini xalqaro himoya qilish davlat va



nodavlat xalqaro tashkilotlarning to‘laqonli va barkamol shaxsni shakllantirish, ularning huquqlarini himoya qilishga ko‘maklashish maqsadida bolaning huquqlarini rivojlantirish va ta’minalashga qaratilgan o‘zaro kelishilgan harakatlar tizimidir . Bolalar huquqlarini himoya qilishni xalqaro huquqiy tartibga solish tushunchasi nisbatan yaqinda paydo bo‘ldi. Birinchi jahon urushining tinch aholiga halokatli ta’siri va Yevropa va Shimoliy Amerikaning aksariyat mamlakatlarida bolalarni himoya qilish masalasiga qiziqish ortib borishi 1919-yilda Millatlar Ligasining Bolalar farovonligi qo‘mitasini tuzishiga olib keldi. Bu davrda bolalarni himoya qilishning ijtimoiy standartlarini ishlab chiqishda nodavlat tashkilotlar, xususan, angliyalik Eglantayn Jebb tomonidan asos solingan “Xalqaro bolalarni asrash ittifoqi” katta rol o‘ynadi. 1923-yilda ushbu tashkilot bolalarni yetarli darajada himoya qilish va ularga g’amxo‘rlik qilishni ta’minalash uchun jamiyat rioya qilishi kerak bo‘lgan asosiy shartlarni o‘z ichiga olgan deklaratsiyani ishlab chiqdi .

Xulosa qilib aytganda, bolalar huquq va manfaatlarini xalqaro huquqiy himoya qilish xalqaro standartlar va mexanizmlardan kelib chiqqan holda muhim va rivojlanayotgan asosdir. Ushbu maqola Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to‘g’risidagi konvensiyasi (CRC) va ular bilan bog’liq huquqiy asoslar kabi xalqaro hujjatlarning ahamiyatini ta’kidlab, ushbu keng qamrovli huquqiy himoyaning asosiy elementlari va manbalarini yoritib berdi. Unda asosiy tamoyillar, nazorat mexanizmlari hamda bolalar farovonligi va huquqlarini rag‘batlantirishda xalqaro hamkorlikning muhim roli o‘rganildi. Bundan tashqari, maqolada bolalar duch keladigan zamonaviy muammolar va xalqaro hamkorlik va siyosiy tashabbuslar orqali ushbu muammolarni hal qilish bo‘yicha olib borilayotgan sa'y-harakatlar ta’kidlangan. Bolalar farovonligini oshirish bo‘yicha global majburiyatlarni shakllantirishda Barqaror Rivojlanish Maqsadlarining (BRM) rolini ta’kidlab, maqola xalqaro huquqiy himoyalarning o‘zaro bog‘liqligi va bolalar uchun yaxshiroq dunyoga kengroq jamiyat intilishlarini ko‘rsatib berdi. Muhimi, ushbu maqolada bayon etilgan keng qamrovli manba va mexanizmlar bolalar huquq va manfaatlarini to‘liq va teng himoya qilishni ta’minalash bo‘yicha xalqaro sa'y-harakatlarning hamjihatligidan dalolat beradi. Biz olg'a borar ekanmiz, butun dunyodagi barcha bolalar uchun yanada yorqinroq va adolatli kelajakni ta’minalash uchun ushbu bilimlardan foydalanish, hamkorlik qilish va xalqaro huquqiy himoyalarni rivojlantirishni davom ettirish juda muhimdir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017-2021- yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo‘yiladigan “Davlat talablari”. 2018-yil 3-iyul, ro‘yxat raqami 3032.
4. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldaggi 4-sonli hay’at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.
5. O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat dasturi Konseppiyasi. Vazirlar Maxkamasining 1999-yil 27-maydagi qaroriga ilova.
6. Tojimamatov, J., & Egamberdiyev, O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON.
7. Egamberdiyev, O., Kholdarova, Z., & Khusanova, M. (2022). THE ORDER OF THE APPEARANCE OF THE PEOPLE'S DIPLOMACY OF THE GREAT SILK ROAD COUNTRIES.
8. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). NEED TO FORM CREATIVE COMPETENCE IN EDUCATORS. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 162-165.
9. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL ACTIVITY OF EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 166-169.
10. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). DIFFERENT APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 158-161.
11. Oyatillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 63-65.



12. Oyatillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 63-65.
13. Iqboljon O'g'li, T. J., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON. *PEDAGOGS jurnali*, 9(3), 4-7.
14. Alisher o'g'li, E. O. (2022). Issues of Retraining and Professional Development of Pedagogical Personnel. *The Peerian Journal*, 5, 192-194.
15. Yusufovich, A. A., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(6), 1157-1161.
16. Alisher o'g'li, E. O., & Zokirjon o'g'li, M. J. (2022). The Role of Psychology in the Treatment of Heart Failure in Humans. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 5, 500-502.
17. Ахмедов, А., Эгамбердиев, А., & Сотволдиева, О. (2022). The role of pedagogical technologies in improving the quality of education. *Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar*, 1(1), 59-60.
18. Alisher o'g'li, Y. O. (2022). IJTIMOIY MUHITNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. *PEDAGOGS jurnali*, 18(1), 220-225.
19. Yusufovich, A. A. (2022). PEDAGOGICAL ASPECTS OF FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. *Science and Innovation*, 1(4), 136-138.
20. Zokirjon o'g'li, M. J. (2022). PROFESSIONALISM AS A GENERALIZED TYPICAL MODEL OF A PROFESSIONAL IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. *Journal of new century innovations*, 11(1), 186-189.